

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDAGI KOSMONIMLAR

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi kosmonimlarning leksik xususiyatlari yoritildi. Dostonning onomastik ko‘lamni, ya’ni atoqli otlarning qo‘llanilish masalalari tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, onomastika, kosmonimlar, badiiy asar nomlari, “Layli va Majnun” dostoni.

Ma’lumki, kosmonim (yunoncha *xocmos* – kosmos, olam, koinot + *onoma* – atoqli ot) – kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli oti, onomastik ko‘lam tiplaridan biridir [1].

Kosmonimlar – olam, koinot obyektlari, oy, quyosh va boshqa fazoviy jismlar nomlari bo‘lib, ularning jamul jami *kosmonimiya*, tadqiq etuvchi soha nomi esa *kosmonimika* deb yuritiladi. Masalan: *Qalqon*, *Katta Ayiq*, *Quyosh*, *Sekstant*, *Janubiy baliq*, *Shimoliy toj*, *Oq yulduz*, *Qizil yulduz* (*Mirrix*) kabilar.

Osmon jismlari eng qadimgi davrlardan boshlab turkiy xalqlar turmushining ajralmas qismiga aylangan va kishilar har bir kosmik obyektning xususiyatlarini yaxshi bilgan holda, ob-havo, fasllar almashinishi kabilarni aniqlashgan, planeta va yulduzlar mo‘jal vazifasini ham bajargan. Kishilarning bir-biri bilan aloqasi jarayonida osmon jismlarining nomlari ham xuddi ish qurollari va boshqa predmet nomlari singari zarur bo‘lgan. Bu esa, o‘z navbatida, kosmonimlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun tilimiz taraqqiyotining qadimgi davrlaridagi kosmonimlarning aksariyat qismi o‘z qatlamga mansubdir.

Tilimizdagi bunday leksik semantik guruh (LSG)ga mansub so‘zlar H.Eshonqulov, A.Primov, M.Jo‘raev, Z.Yunusova kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, H.Eshonqulov “Alisher Navoiy she’riyatida samoviy timsollar” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan, keyinchalik shu mavzuda risola ham nashr ettirgan [2;3]. Z.Yunusova *Saturn*, *O‘ng‘ay*, *Mushtariy*, *Zuhra*, *Cho‘pon*, *Mirrix*, *Bahrom* kabi samoviy yoritgichlar lug‘aviy guruhi misolida o‘zbek tilidagi lug‘aviy mikrosistemaning tarkibi hamda rivojlanish jarayonini tadqiq etgan [4]. Aslida bu LSG markazida *kun*, *oy*, *kavkab*, *kavokib*, *yeyzak*, *qulovuz*, *sayyora* kabi appelyativlar

(turdosh otlar) hamda *Sekantir*, *O'ng'ay*, *Hulkar*, *Qoraqush*, *Yetikan* kabi onomastik qurshov so'zlari mavjud bo'lib, ular badiiy matnlarda o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanadi.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi kosmonimlarni o'rganishga harakat qildik.

Zuhra – *Quyosh sistemasidagi ikkinchi planeta Venera deb atalib, qadimgi Rim mifologiyasidagi sevgi va go'zallik ma'budasi sharafiga qo'yilgan.*

Zuhra asli «yorqin nur sochdi» ma'nosini anglatuvchi arabcha zahara fe'lining I bob masdari bo'lib, «yorqinlik», «ravshan» degan ma'nolarni beradi. **Zuhra** arab tilida Zuhrat(un) yoki al Zuhratun shaklida ishlatilsa ham, o'zbek va fors tillarida ot undoshi tushirilib, faqat planeta nomini ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur planetaning **Zuhra** nomidan tashqari, eroniy qatlama ga mansub **Nohid** nomlari ham mavjud.

Zuhra yo'lida tuzub navozir,
Mutriblardek bo'lub miyongir.

Xunyogaru nag'masoz **Nohid**,
Lekin daf aning qo'lida xurshed.

Bahrom – **Mirrix** ham deydilar. Forslarda **Bahrom**, yunonlarda **Mars** sayyorasi. Uni urush homisi hisoblaganlar. Qadimgi ilmi nujumga ko'ra **Bahrom** beshinchchi falak sayyorasi bo'lib, yerdan kichik, to'rtinchi o'rinda turadi. Hozirgi o'zbek tilida **Mars** planetasi deyiladi.

...**Bahrom** ko'rib biyik janobin,
Tashlab qilichin, o'pub rikobin.

Bu baytda shoir Muhammad payg'ambar Me'rojga ko'tarilganda, uni ko'rgan Bahrom qo'lidan qilichini tashlab, otining rikobi- uzangisini o'padi, deya ta'riflaydi. Shoir bu voqeanning mushohidlari sayyoralar edi, demoqchi bo'ladi.

Birjis – Mushtariy (Yupiter) sayyorasining forschcha nomi. Ilmi nujumda bu sayyorani «*Sa'di akbar*» va «*Falak qozisi*» ham deb yuritiladi, joyi beshinchchi falakda deydilar.

Birjisqa chun etib rikobi,
Ish ang'a saodat iktisobi.

Shoir bu baytda Muhammad payg'ambar otining uzangisini Bahrom o'pdi, keyin Birjisga rikobi etishti va bundan u g'oyat saodatmand bo'ldi, deydi.

Boshladilar ul, ikkovni xandon,
Yo'q kulgu vals alarg'a chandon.

Majnunni qarin qilib parig‘a,
Topshurdilar oyni ***Mushtarig‘a***.

Zuhal – *Saturnning arabcha nomi, Kayvon ham deyiladi. Joyi oltinchi falakda ekan.* Shoir bu baytda Zuhal sayyorasi Muhammad payg‘ambarga otboqar bo‘lishni orzu qilganini ta‘riflaydi.

Soyislig‘iga ***Zuhal*** urub fol.
Gaz dastasi bila qo‘lida girbol.

Mukshiy ko‘rubon xati savodin.
Kayvon yuziga sochib midodin.

Oy qursida yo‘q ziyo nishoni,
Yer anga quyosh qo‘mondoni.
Tong otqucha yummayin ko‘zin tiyr
Aylar edi «in yakodu» tahrir.

Zuhra ne o‘qub, ne cholibon chang,
Parda aro kirmak aylab ohang.
Ko‘p sham’iki yer tubiga borib,
Xilvat kecha sham’ni chiqorib.

Bahrom chekib sinon, solib sho‘r.
Kim boqsa yomon ko‘z aylagay ko‘r.
Birjis qo‘l ochubon duog‘a,
Fursat tilab ikki dilrabog‘a.

Nahsiyyatidin ***Zuhal*** yumub chang,
Tunga berur erdi yuzidin rang.

Atorud (Merkuriy) tong otguncha hech ko‘zini yummashdan, «ko‘z tegmasin» oyatini yozar edi. Zuhra yulduzi ashula qilmay, chang chalolmay, parda ichiga yashirinayotgai edi. Quyosh sham’i yer tagiga botib, kecha xilvati o‘z sham’ini chiqargan edi. Bahrom (Mirrix) yulduzi g‘azab bilan payza o‘qtalib, har kim yomon ko‘z bilap qarasa ko‘rqilmoqchi bo‘lib turar edi. Birjis (Mushtariy-Yupiter) esa shu ikki dilraboga fursat tilab, qo‘l ochib duo qilar edi. Zuhal yulduzi esa, baxtsizlik yog‘dirishdan nomus qilib, shunga o‘z yuzidan qora rang berar edi.

Savr – eski astrologiyada osmondag‘i o‘n ikki burjning ikkinchisi. Quyosh yili hisobida aprel oyiga to‘g‘ri keladi.

Savru Hamal aylabon fig‘onlar,

Qurboni aning qilurga jonlar...

Hamal – o‘n ikki burjning birinchisi, unga quyosh mart oyida kiradi. Quyosh yili hisobida birinchi oy nomi mart oyiga to‘g‘ri keladi.

Javzo ko‘zi to‘rt o‘lub **Baqardin**,

Topib **Saraton** ham ul nazardnn.

Ham **Sher** tutub yo‘lida go‘sha,

Ham Xo‘sha bo‘lub otig‘a to‘sha,

Jon sanj o‘lub izidin **Tarozu**,

Aqrab topib anda no‘sh doru.

Yoy go‘sha tutub qoshi xamidin,

Qo‘chqor o‘lub o‘chku maqdamidin.

Qo‘bqa suyi obi zindagoniy,

Ul suv bila toza **Xut** joni.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlardagi, jumladan Alisher Navoiy asarlaridagi onomastik birliklarni atroflicha to‘plash va tadqiq qilish faqat tilshunoslik fani uchun emas, balki xalq tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma’naviyati uchun katta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 41.
2. Эшонқулов Ҳ.П. Алишер Навоий шеъриятида самовий тимсоллар (“Бадойъ ул-бидоя”, “Наводир ун-ниҳоя” девонлари асосида). НДА. – Самарқанд, 1999. – 25 б.
3. Эшонқулов Ҳ. Самовот – ишқ мазҳари. – Тошкент: Фан, 2008. – 116 б.
4. Юнусова З.Қ. Ўзбек тилида лугавий микросистеманинг таркиби ва ривожланиши (самовий ёритгичлар лугавий гурухи мисолида). НДА. – Тошкент, 2005. – 22 б.
5. www.ziyo.com kutubxonasi. Navoiy A. Layli va Majnun. - В. 235.
6. Xudayarova, M., & Murodova, G. (2023). NAVOIY ASARLARIDA QO’LLANILGAN TAOM NOMLARI. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(1), 92-94.
7. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining o'ziga xos xususiyatlari. *TDPU ILMIY AXBOROTLARI*.